

SO‘ZLASHUV NUTQIDA LINGVOMADANIY
BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI

Ozoda Abdullayeva

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

301-guruh talabasi

[ozodaa576.@gmail.com](mailto:ozodaa576@gmail.com).

[Tel:992230310](tel:992230310)

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologik nuqtai nazardan tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy e‘tibori kundalik so‘zlashuv nutqida milliy-madaniy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan birliklarning (frazologizmlar, maqollar, metaforalar va etiket shakllari) tutgan o‘rnini aniqlashga qaratilgan. Maqolada so‘zlashuv nutqida lingvomadaniy birliklarning qo‘llanilishi nafaqat axborot uzatish, balki so‘zlovchining milliy o‘zligini, qadriyatlarini va ijtimoiy munosabatini ifodalashga xizmat qilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, nutq jarayonida lisoniy tejamkorlik va ekspressivlikni ta‘minlashda ushbu birliklarning ahamiyati misollar yordamida yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, so‘zlashuv nutqi, lingvomadaniy birlik, frazeologizm, milliy manzara, lisoniy muloqot, etiket, mentalitet.

Lingvomadaniy birliklar lingvokulturologiyaning predmeti hisoblanadi. Lingvokulturologiyaning predmeti – madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma’no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi. Bunda muayyan lingvokulturologik birlik bir paytning o‘zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo‘lishi mumkin: ma’lum bir odat frazeologizmga, maqolga, matalga aylanishi mumkin.

V.A. Maslovaning tadqiqotlarida lingvomadaniy birliklar quyidagilarni tashkil etgan¹:

1. Muqobilsiz leksika va lakunalar;
2. Mifologiyalashtirilgan til birliklari;
3. Tilning paremiologik fondi;
4. Tilning frazeologik fondi;
5. O‘xshatishlar, ramzlar, streotiplar;
6. Tilning metaforalari va obrazlar;
7. Tillarning stilistik qatlami;

¹ Usmonova Sh. Lingvokulturologiya.-Toshkent,2019.

8. Nutqiy muomala;

9. Nutqiy etiket;

1. **Muqobilsiz leksika.** Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir'so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar mavjud bo'ladi. Bunday so'zlarga muqobilsiz leksika deyiladi. Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. U ko'pincha mahalliy xalqqa xos pul, masofa-uzunlik birliklari, ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik va h.k. tushunchalarni anglatadigan so'zlardan tarkib topadi. Muqobilsiz leksika boshqa tilga o'zlashtirilganda ularga ekzotik leksika (ekzotizmlar) deyiladi.

2. **Mifologiyalashtirilgan til birliklari.** Bular arxetiplar va mifologemalar, udumlar va rivoyatlar, taomillar va urf-odatlar sanaladi. Har bir aniq frazeologizmدا butun boshli bir mif emas, balki mifologema aks etadi. Mifologema - bu mifning bosh qahramoni, uning muhim personaji yoki vaziyati bo'lishi va u mifdan mifga o'tishi mumkin.

3. **Tilning paremiologik (maqol va matallat) fondi.** Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o'rin olgan javohir sandig'i deyish mumkin. Ma'lumki, maqol va matallar folklorshunoslikda janr matnlari sifatida keng o'rganilgan. Ularni tilshunoslikda, xususan, lingvokulturologiyada o'rganish endi boshlanmoqda. Pragmatik nuqtayi nazardan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, kesatish, yupatish, o'git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish, tahdid qilish va h.k. qo'llanishi mumkin.

4. **Tilning frazeologik fondi** xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbasi sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma'naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo'ladi. Masalan, **ko'rpa-siga qarab oyoq uzatmoq** "imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq", **tanobidan tortmoq**- "faoliyat doirasini, imkoniyatini cheklab qo'yimoq", **to'ydan ilgari nog'ora qoqmoq** "ro'yobga chiqishi aniq bo'lmagan voqae haqida hovliqmalik biln vaqtdan oldin gapirmoq".

5. **O'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar.** O'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsionat-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi.

Ramz tushunchasi qator fanlar nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilinadi: 1) ramz - belgi bilan o'xshash tushuncha (tillarni sun'iy formallashtirishda) 2) hayotni san'at vositasida obrazli o'rganish o'ziga xosligini ifodalovchi universal kategoriya (estetika va san'at falsafasida); 3) muayyan madaniy obyekt (madaniyatshunoslikda, sotsiologiyada va boshqa ijtimoiy fanlarda) 4) ramz belgi bo'lib, uning dastlabki

mazmunidan boshqa mazmun uchun shakl sifatida foydalaniladi (falsafa, lingvistika, semiotika va h.k.).

Stereotip hodisasi nafaqat tilshunoslarning ishlarida, balki sotsiologlar, etnograflar, kognitologlar, psixologlar va etnopsixolingvistlarning ham tadqiqotlarida o‘rganiladi. Qayd qilingan fanlarning har qaysi vakili stereotiplarning xususiyatini o‘z sohasining tadqiqoti nuqtayi nazaridan belgilaydi.

6. Metaforalar va obrazlar. Tadqiqotlarda metaforalar ongning universalialari sifatida belgilangan. Zamonaviy psixologlar dunyoni metaforalar asosida ko‘rishni insonning genezisi va madaniyati bilan bog‘lashga harakat qilishadi.

Obraz - so‘z bilan madaniyatning bog‘liqligi haqida asosiy ma‘lumot beruvchi muhim lisoniy mohiyat sanaladi.

7. Tillarning stilistik qatlami. Turli tillarning sitilistik qatlami, u yoki bu tilning qaysi shaklda namoyon bo‘lishi ham lingvokulturologiyaning tadqiqot predmeti sanaladi. Shunday tillar borki, ularda kuchli dialektik qatlam mavjud bo‘lsa, boshqalarida dialektik farqlar deyarli sezilmaydi. Yana shunday tillar mavjudki, ularda stlistik differensiatsiya endigina boshlangan bo‘lsa, boshqalarida aksincha, bu differensiatsiya chuqur va ko‘p qirrali bo‘ladi. Adabiy til va noadabiy til shakllari o‘rtasida o‘zaro aloqaning mavjudligi jamiyat madaniy tarixining barcha rivojlanish bosqichlari, xususan, uning yozuvlari, adabiyotlari, maktablari tarixi, uning dunyoqarashi, madaniy-g‘oyaviy simpatiyalari va h.k. bilan belgilanadi.

8. Nutqiy muomala, shuningdek, nominativ, grammatik va stilistik birliklarda mustahkamlangan har qanday muomala lingvokulturologiyaning maxsus tadqiqot predmeti bo‘la oladi.

9. Nutq etiketi - insonlarning rasmiy va norasmiy vaziyatlardagi o‘zaro muioqotida ularning ijtimoiy va psixologik roliga mos ravishda amal qilinadigan ijtimoiy va madaniy o‘ziga xos nutqiy muomala qoidalari. Nutq etiketi - bu "ijtimoiy silliqqlangan" hudud, muloqotning milliy-madaniy komponenti.

Biz yuqorida ta’kidlanganlardan frazeologizmlarning lingvomadaniy birlik sifatida qo‘llanishini ko‘rib o‘tamiz. Yusuf Nurmuhammedovning “ Frazelogik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari” nomli tadqiqotida ko‘rib chiqilgan ma‘lumotlarni keltirish maqsadga muvofiq: Frazelogizmlar milliy o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda ularning madaniy komponentlari bir necha guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga FBlarning obrazli asosi bilan bog‘lanmaydigan denotativ-signifikativ mazmunli madaniy komponentlar kiradi. Ikkinchi guruhga FBlarning obrazli asosi bilan metoforik uzayish hisobiga bog‘lanadigan denotativ-signifikativ mazmunli madaniy komponentlar kiradi. Uchinchi guruhga ham frazeologik ma‘no sathida ham ichki shakl sathida qo‘llanadigan madaniy komponentlar kiradi (Мелерович, Мокиенко, 1999:63-65)²

² Nurmuhammedov Yusuf. Frazelogik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. –Samarqand, 2021.

D. Dobrovolskiy til sohiblari tomonidan muayyan frazeologizmlarni “o‘ziniki” sifatida intuitiv idrok qilishlarining omili FBlarning shakliy tuzilishi ekanligi gipotezasini ilgari suradi. Bunday xususiyatlarga bir tomondan, shakllarning murakkablashuvi (qofiyadoshlik, tovushlar o‘xshashligi va hakoza) omillari: **uchi quyrug‘i yo‘q; sayoq yursang, tayoq eysan; ming ishchiga bir boshchi; Alixo‘ja - Xo‘jaali; miridan-sirigacha, mayda-chuydasigacha, (yuragi) taka-puka bo‘ldi** ikkinchi tomondan, frazeologizmlar alohida komponentlarining muayyan belgiligi, xususan, ular tarkibida milliy atoqli otlar va ularning yasamalari mavjudligi: **yonida bir puli yo‘q, G‘irvonga hokim; axmoqqa To‘ytepa bir tosh; Alixo‘ja – Xo‘jaali; o‘zbekning o‘pgani - tuyaning tepgani; Tupkonning tagid; onasini Uch qo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq; xalq ertak-matallari qahramonlari: misoli Azroilday, misli ajdarhoday, jin ursin; Daqyonusdan qolgan; anqoning tuxumi; so‘z-realiyalar: tuzsiz xamir tandirda turmas; do‘ppisini osmonga otmoq; og‘ziga nos solmoq; arxaik so‘z komponentlar: so‘fi so‘g‘on yer, topilsa, yo‘g‘on yer; xon boqdi, xudo boqdi; ota go‘ri qozixonami** va boshqalar.

Frazeologizmlarni milliy-madaniy izohlash manbalaridan biri ularning obraz – etalonli komponentlari hisoblanadi. Masalan, qo‘y – yuvoshlik stereotip-obrazi: **qo‘yday yuvosh, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan**. Aksincha, rus lingvomadaniyatida, qo‘y – o‘jarlik, qaysarlik, sarkashlik stereotip-obrazi. Tulki tub amerikaliklar madaniyatida zukkolik, ayyorlik va sinchkovlik ramzi. Yaponiyada hiyla-nayrang ramzi hamda buyuk aql va omadning qudratli egasi o‘rtasida tebranib turadigan muhim afsonaviy maqomga ega.

Endi frazeologizmlarning lingvomadaniy birlik sifatida qo‘llanishini O‘tkir Hoshimovning “Ajdarining tavbasi” asari asosida tahlil qilamiz.

1. **“Qora yurak”**. QORA YURAK – YURAG(I) QORA [kimning?] g‘arazgo‘y, buzuq niyatli [O‘TFl,2022,415-b]. To‘g‘ri ma‘no: Qora rangdagi yurak. Ko‘chma ma‘no: Rahmsiz, shafqatsiz, yovuz inson. Lingvomadaniy tahlil: O‘zbek xalq tafakkurida “qora” rangi salbiylik, g‘am, yovuzlik timsoli. “Yurak” esa mehr, vijdon markazi sifatida talqin qilinadi. Demak, “qora yurak” – qalbi pok emas, mehrdan yiroq odamni anglatadi. (- Biz mehnat qilyapmiz. Halol, fidokorona ishlayapmiz. Yutuqlarimizni ko‘rolmaydigan Ergashev degan qora yurak esa...). [O‘. Hoshimov. Ajdarining tavbasi,2016,168-b].

2. **“Yurak oldirib qo‘ymoq”**. YURAG(I)NI OLIB QO‘YMOQ kim? kimning? – YURAG(I)NI OLDIRIB QO‘YMOQ kim? [o‘zining] bezillatib qo‘ymoq. Varianti: yurak oldirib qo‘ymoq kim? oldirib qo‘ygan yurag(i) kimning? [O‘TFl,2022,574-b]. To‘g‘ri ma‘no: Yuragini yo‘qotish. Ko‘chma ma‘no: Qo‘rqib qolmoq, jur‘atsizlanmoq.

Lingvomadaniy asos: Yurak – jasorat timsoli. O‘zbek mentalitetida “yuragi bor yigit” – botir degani. Shuning uchun yurakni “oldirib qo‘yish” – jasoratni yo‘qotish

deganidir. (Bergan puli vaqtida qaytaverimaganidan keyin ustoz yurak oldirib qo‘ygan). [O‘. Hoshimov. Ajdarning tavbasi,2016,347-b].

3. **“Boshi qotmoq”**. BOSH QOTMOQ, BOSH QOTIRMOQ kim? astoydil o‘ylamoq, chuqur fikrlamoq. [O‘TF1,2022,96-b].

To‘g‘ri ma‘no: Boshni og‘ritmoq. Ko‘chma ma‘no: O‘ylantirib tashlamoq, qiynamoq. Madaniy asos:

“Bosh” – aql markazi. O‘zbek tilida aql, tafakkur bosh bilan bog‘lanadi. Muammo ko‘p bo‘lsa, “bosh qotadi”.

(Boyadan beri bir narsani bilolmay boshim qotyapti). [O‘. Hoshimov. Ajdarning tavbasi,2016,348-b].

4. **“Boshdan oyoq”**. BOSHDAN OYOQ to‘la-to‘kis,

bus-butun. Varianti: boshidan oyoq. [O‘TF1,2022,108-b]. To‘g‘ri ma‘no: Tananing yuqorisidan pastigacha.

Ko‘chma ma‘no: To‘liq, butunlay. Lingvomadaniy xususiyat: O‘zbek xalq tafakkurida inson tanasi yaxlitlik ramzi. “Boshdan oyoq” deyish – narsani to‘liq qamrab olishni bildiradi. (Qiz menga boshdan-oyoq qarab chiqdi-da, jahl bilan bijirladi:

- E, yo‘qol, shpana!) [O‘. Hoshimov. Ajdarning tavbasi,2016,393-b].

5. **“Otini boshqa qo‘yamoq”**. OTIMNI BOSHQA QO‘YAMAN! [kim?– men [o‘zimning]] biror ishni bajarishga qasd qilganligini bildirishda aytiladi (ma‘lum darajada qasam ichish bilan teng). Varianti: nomimni boshqa qo‘yaman! otimni boshqa qo‘ying! [kim? kimning?] [O‘TF1,2022,357-b]. To‘g‘ri ma‘no: Nomini o‘zgartirmoq. Ko‘chma ma‘no: Biror narsaga boshqacha baho bermoq, asl mohiyatini yashirmoq. Lingvomadaniy asos: Ism – o‘zbek madaniyatida muqaddas tushuncha. Ismni o‘zgartirish – mohiyatni o‘zgartirish bilan teng ko‘riladi. (O‘shanda Rais buva: «Senlarni talaba qilmasam, otimni boshqa qo‘yaman», - deyishga deb qo‘ydi-yu, palakat bosib Tulporimdan tepki yegandan keyin, bu gap paqqos esidan chiqib ketgandir, deb o‘ylagandim) [O‘.Hoshimov. Ajdarning tavbasi,2016,76-b].

6. **“Boshiga ko‘tarib yurmoq”**. BOSH(I)GA KO‘TARMOQ I qattiq shovqin qilmoq. Varianti: boshga ko‘tarmoq kim? nimani? Sinonimi: shovqin solmoq kim? BOSH(I)GA KO‘TARMOQ II kim? [o‘zining] kimni? yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq. [O‘TF1,2022,104-b]. To‘g‘ri ma‘no: Biror narsani bosh ustida olib yurmoq. Ko‘chma ma‘no: Juda e‘zozlamoq, hurmat qilmoq. Madaniy asos: O‘zbeklarda bosh – eng muqaddas a‘zo. “Bosh ustiga” deyish – hurmat ifodasi. (Ota-onasi shu qizni ne umidlar bilan qog‘ozga o‘rog‘liq qanddek asradi. Boshingga ko‘tarib yur, xo‘pmi?) [O‘. Hoshimov. Ajdarning tavbasi,2016,191-b].

7. **“Boshiga baxt qushi qo‘nmoq”**. BAXT QUSHI baxtiyorlik, baxtlilik, baxtli. Baxt qushi boshiga qo‘nmoq: boshiga baxt qushi qo‘nmoq. [O‘TF1,2022,64-b]. To‘g‘ri ma‘no: Baxt qushi kelib boshiga qo‘nishi. Ko‘chma ma‘no: Omadi kelmoq,

baxtli bo‘lib qolmoq. Lingvomadaniy asos: “Baxt qushi” qadimiy mifologik timsol. Qush – erkinlik, omad belgisi. O‘zbek folklorida baxt kutilmaganda keladi. (O‘g‘lingizning boshiga baxt qushi qo‘nib turibdi-yu, siz noz qilasizmi?) [O‘. Hoshimov. Ajdarning tavnasi,2016,162-b].

8. **“Hunar ko‘rsatmoq”**. HUNAR KO‘RSATMOQ kim? yashirin salbiy xususiyatini oshkor qilmoq. [O‘TFI,2022,190-b] To‘g‘ri ma‘no: O‘z mahoratini namoyish qilmoq. Ko‘chma ma‘no: O‘z qobiliyatini ishga solmoq (ba‘zan kinoya bilan ham). Madaniy asos: O‘zbek xalqida hunar – qadimdan qadrlangan tushuncha. “Hunar – hunardan unar” maqoli ham shuni ko‘rsatadi. (Endi mashina ichiga biqinib olib, hunar ko‘rsatyaptimi, hezalak! Qarasam, yo‘q, mashina ichida hech kim ko‘rinmaydi). [O‘. Hoshimov. Ajdarning tavnasi,2016,210-b].

Bundan tashqari asarda **“oyoq tiramoq”**, **“boshdan oyoq razm solomoq”**, **“yuzidan o‘tmoq”**, **“yuzidan nur yog‘ilib turmoq”**, **“itni kunini boshiga solmoq”**, **“boshga bitgan balo bo‘lmoq”** kabi ko‘plab iboralar lingvomadaniy birlik sifatida qo‘llangan va xalqimizning turli-tuman qadriyatlarini ifodalashga, qahramonlar xarakterini ochishga, asarning badiiy-estetik ta‘sir kuchini oshirishga yo‘naltirilgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, iboralar tilning shunchaki bezagi emas, balki xalqning ma‘naviy-madaniy hayotini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Ularni lingvomadaniy birliklar sifatida tadqiq etish, millatning dunyoqarashi, turmush tarzi va ijtimoiy qadriyatlarini chuqur anglash imkonini beradi. Har bir frazeologizm zamirida asrlarga teng tarixiy tajriba va milliy ruh yashirin. Shunday ekan, iboralarni o‘rganish — nafaqat tilshunoslikning, balki madaniyatshunoslik va antropologiyaning ham dolzarb vazifasidir. Zero, til yashasa, millat madaniyati ham barhayotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hoshimov O‘. “Ajdar”ning tavnasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –B. 423.
2. Maxmaraimova Sh.T. Lingvokulturologiya. –Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2017. –B. 163.
3. Nurmammedov Yusuf. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. – Samarqand, 2021. –B. 134.
4. Usmonova Shoir. Lingvokulturologiya.-Toshkent,2019. –B. 245.
5. Shavkat Rahmatullayev, Nizomiddin Mahmudov, Zulxumor Xolmonova, Iqbol O‘razova, Kamola Risiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 635.